



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

**ANDIJON VILOYATIDA
OLIV TA'LIM FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**
(2022/2023- o'quv yili boshiga)





ANDIJON VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI

Sifatli ta'lim olish odamlarning turmush sharoitini yaxshilash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga zamin yaratadi. Ta'limning qulayligi va sifati masalalari dunyoning barcha davlatlari strategik rivojlanish dasturlariga kiritilgan, chunki davlat aholining o'zini o'zi anglash imkoniyatlari uchun ta'lim muhitini yaratish orqali mamlakatda moddiy farovonlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, inson kapitalini oshirishga hissa qo'shadi, o'z o'rnida, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltiradi va xalqaro maydonda raqobatdosh ustunlikni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlangan.

Savodsizlikka barham berish va barcha fuqarolar uchun arzon ta'limni ta'minlashda katta muvaffaqiyatlarga erishgan O'zbekiston, ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirishning ustunligini saqlab kelmoqda, bu shubhasiz ijobiy omildir.

O'zbekiston Respublikasida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- milliy istiqlol g'oyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- bilimlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi.



Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq, fanlarning dasturlari va o'quv rejalarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;
- oliy ta'limni normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minoti bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Dastur yakunida davlat komissiyasi tomonidan bitiruvchilarga o'qish yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" malakasi beriladi va tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. O'qishni tugatgandan so'ng bitiruvchilar ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha diplom va magistr darajasiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ularga tenglashtirilgan oliy o'quv yurtlari).

Universitet – eng keng mutaxassisliklar bo'yicha oliy yoki oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini taklif qiladi.

Akademiya – alohidagi ilmiy sohalar va yo'nalishlar bo'yicha oliy va institutdan keyingi ta'limning pedagogik dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Institut – aniq bilim sohasi doirasida ma'lum bir yo'nalishlar va darajalar bo'yicha oliy yoki oliy ta'limdan keyingi ta'limning o'quv dasturlarini amalga oshirish sohasida faoliyat yuritadi.





FAOLIYAT KO'RSATAYONGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI SONI (2022/2023-o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan xorijiy nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlik



2019/2020-o'quv yilidan boshlab Andijon viloyatida birinchi xorijiy nodavlat oliy ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini boshladi.

2022/2023-o'quv yiliga kelib xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni 3 taga ko'paydi. Hozirgi kunda ular viloyatdagi jami oliy ta'lim tashkilotlarining 30,0 % ni tashkil etadi



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni va ularning mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (2022/2023- o'quv yili boshiga, birlik)



Andijon viloyati




Andijon shahar



Andijon tumani



2022/2023- o'quv yilida Andijon viloyatida oliy ta'lim tashkilotlari soni 10 tani tashkil etdi. O'tgan 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan ular soni 2 taga yoki 25,0 % ga ortgan. Jami oliy ta'lim tashkilotlarining 9 tasi viloyatning markazi hisoblangan Andijon shahrida va 1 tasi Andijon tumanida faoliyat olib boradi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlaridgi jami 58 312 nafar talabalardan 960 nafari, yoki 1,6 % nodavlat talim tashkiloti talabalari hisoblanadi.



ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA QABUL NATIJALARI


(o'quv yili boshiga, ming kishi)

Qabul qilingan talabalarning ariza topshirganlarga nisbati




TA'LIM BOSQICHLARI KESIMIDA, ming kishi

BAKALAVRIAT



MAGISTRATURA



Topshirilgan arizalar

Qabul qilingan talabalar

2022/2023-o'quv yilida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlariga jami 112,2 ming nafar abituriyentlardan arizalar topshirilgan bo'lib, ulardan 11,5 ming nafari, yoki 10,2 % talabalikga qabul qilindi.

O'tgan 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan taqqoslaganda qabul qilingan talabalar soni 2,0 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.




ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TURLARI KESIMIDA QABUL NATIJALARI


(2022/20223- o'quv yili boshiga, ming kishi)

BAKALAVRIAT


Kunduzgi ta'lim



Sirtqi ta'lim



Kechki ta'lim




Andijon viloyatida 2022/2023-o'quv yili uchun oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichiga jami 110,3 ming nafar abituriyentlar ariza topshirdi. Ulardan 73,1 % kunduzgi ta'lim, 26,4 % sirtqi ta'lim va 0,5 % kechki talim yo'nalishlari bo'yicha ariza topshirgan.

Kunduzgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ariza topshirgan 7,4 %, sirtqi ta'lim bo'yicha 12,4 %, hamda kechki ta'lim yo'nalishi bo'yicha 50,0 % abituriyentlar talabalikga qabul qilingan.

Magistratura bosqichi bo'yicha ariza topshirgan 1946 nafar bakalavrlardan 147 nafar faqat kunduzgi bo'limga qabul qilingan.

DAVLAT GRANTI BO'YICHA QABUL QILINGAN TALABALAR SONI, %



- To'lov kontrakt bo'yicha qabul qilingan talabalar
- Davlat granti bo'yicha qabul qilingan talabalar

ANDIJON VILOYATIDA OLIY TA'LIM



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALAR SONI

(2022/2023-o'quv yili boshiga, ming kishi)



Oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni

O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati

Faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlaridagi jami 58 312 nafar talabalardan 960 nafari, yoki 1,6 % nodavlat talim tashkiloti talabalari hisoblanadi.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari

2022/2023

1,0

66,7 %

O'sish surati

0,6

2021/2022

Davlat oliy ta'lim tashkilotlari

2022/2023

57,3

21,9 %

O'sish surati

47,0

2021/2022



OLIY TA'LIM TASHKILOTILARI TALABALARINING TA'LIM BOSQICHLARI VA TURLARI KESIMIDA TAQSIMLANISHI

(2022/2023-o'quv yili boshiga, kishi)

BAKALAVRIAT

MAGISTRATURA


56841	2022/2023	1471
45904	2021/2022	1747
29855	2020/2021	1040
25217	2019/2020	819
21182	2018/2019	536



2022/2023-o'quv yilida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarida jami 58312 nafar talabalar tahsil olmoqda. Ulardan 56841 nafari yoki 97,5 % ta'limning bakalavriat va qolgan 1471 nafari yoki 2,5 % magistratura bosqichi talabalari hisoblanadi.


O'tgan 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan taqqoslaganda talabalar soni 2,7 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.

TA'LIM TURLARI KESIMIDA





OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA DAVLAT GRANTI BO'YICHA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALAR SONI (o'quv yili boshiga, kishi)



2022/2023-o'quv yilida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarida jami 58312 nafar talabalardan 7541 nafari davlat granti bo'yicha tahsil olmoqdalar. Ulardan 7149 nafari bakalavriat va qolgan 392 nafari magistratura bosqichi talabalari hisoblanadi.

O'tgan 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan taqqoslaganda davlat granti bo'yicha tahsil olayotgan talabalar soni 50,6 % gaa ko'payganligini kuzatish mumkin.




★ Jami davlat granti bo'yicha tahsil olayotgan talabalar soni, kishi

★ Jami davlat granti bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga nisbatan ulushi, %




OLIV TA'LIM TASHKILOTILARI TALABALARINING GENDER TAQSIMOTI

(2022/2023-o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023-o'quv yilida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarida jami 58,3 ming nafar talabalardan 29,2 ming nafari qizlar va qolgan 29,1 nafari yigitlardan iborat. Talaba qizlar soni o'tgan 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan taqqoslaganda 2,9 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.

TA'LIM BOSQICHLARI KESIMIDA, ming kishi



- Yigitlar
- Qizlar


Bakalavriat bosqichidagi jami 56,8 ming nafar talabalardan 28,5 ming nafari qizlar va qolgan 28,3 ming nafari yigitlar tashkil etadi.

Magistratura bosqichidagi jami 1,5 ming nafar talabalardan 0,7 ming nafari qizlar va qolgan 0,8 ming nafari yigitlar tashkil etadi.




OLIV TA'LIM TASHKILOTILARI TALABALARINING TA'LIM TURLARI BO'YICHA GENDER TAQSIMOTI (2022/2023-o'quv yili boshiga, ming kishi)

KUNDUZGI TA'LIM




SIRTIQI TA'LIM



✓ 2022/2023-o'quv yilida Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlaridagi jami 58,3 ming nafar talabalardan 35,7 ming nafari ta'limning kunduzgi turida tahsil oladilar. Jami kunduzgi bo'lim talabalaridan 17,9 ming nafari yigitlar va 17,8 ming nafari qizlardan iborat.

✓ Sirtqi bo'limdagi talabalardan 11,2 ming nafarini yigitlar va 11,1 ming nafarini qizlar tashkil etadi.

KECHKI TA'LIM



✓ Viloyatda ta'limning kechki turi 2022/2023-o'quv yilidan o'z faoliyatini boshlagan. Hozirda unda 0,3 ming nafar talabalar tahsil olmoqdalar.



● Yigitlar ● Qizlar




ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM TASHKILOTILARI TALABALARINING TA'LIM BOSQICHLARI KESIMIDA TAQSIMOTI (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)



BAKALAVRIAT



YIGITLAR



MAGISTRATURA


Andijon viloyati
Andijon shahar
Andijon tumani

QIZLAR





Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha taqsimlanishi (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)





OLIV TA'LIM TASHKILOTILARI TALABALARINING YOSHI BO 'YICHA GENDER TAQSIMOTI


(2022/2023-o'quv yili boshiga, *kishi*)



YIGITLAR



QIZLAR



OLIV TA'LIM TASHKILOTILARI TALABALARINING TA'LIM OLAYOTGAN TILLARI BO'YICHA TAQSIMOTI, *kishi*







OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BITIRUVCHILARI SONI, (kishi)



2022-yilda Andijon viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarini jami 4963 nafar talabalar bitirdilar. Bitiruvchilar sonini o'tgan 2018-yilga nisbatan taqqoslaganda 172 nafarga yoki 3,6 % ga ortganligini kuzatish mumkin






OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINING GENDER TAQSIMOTI (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)




Ta'lim bosqichlari kesimida

BAKALAVRIAT

MAGISTRATURA




Ta'lim turlari kesimida





OLIY TA'LIM TASHKIOTLARINING PROFESSOR-O'QITUVCHI XODIMLARI SONI (o'quv yili boshiga, kishi)




2022/2023- o'quv yili boshiga Andijon viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida xizmat qilayotgan professor-o'qituvchilar soni 2 580 nafarni tashkil etdi. Ular soni o'tgan 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan 41,4 % ga ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlaridagi jami 2 580 nafar professor-o'qituvchilardan 2 210 nafari (85,7 %) Andijon shahrida va qolgan 370 nafari (14,3 %) Andijon tumanida faoliyat olib boradilar.





OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING PROFESSOR-O'QITUVCHI XODIMLARINING GENDER TAQSIMOTI (o'quv yili boshiga, kishi)



2022/2023- o'quv yili boshiga Andijon viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida xizmat qilayotgan jami 2580 nafar professor-o'qituvchilardan 1434 nafari yoki (55,6) % ni erkaklar va qolgan 1146 (44,4 %) ni ayollar tashkil etadi.

O'tgan 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan taqqoslaganda erkak professor-o'qituvchilar soni 435 nafar (43,5 %) ga, hamda ayollar soni 320 nafar (38,7 %) ga ko'payganligini kuzatish mumkin.



Erkaklar
55,6 %



Ayollar
44,4 %



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING PROFESSOR-O'QITUVCHI XODIMLARI SONI (o'quv yili boshiga, kishi)

Fan doktori

Fan nomzodi

Falsafa doktori

Professor

Dotsent

163

350

264

81


378

Ilmiy darajaga ega bo'lganlar

Ilmiy unvonga ega bo'lganlar

2022/2023-o'quv yili boshiga Andijon viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan jami 2580 nafar (asosiy shtatdagi xodimlar) pedagog-xodimlardan 777 nafari ilmiy darajaga ega bo'lib, ulardan 241 nafarini yoki 31,0 % ni ayollar tashkil etadi.

Ilmiy unvonga ega bo'lgan o'qituvchlar soni 459 nafardan iborat. Ularning 136 nafari yoki 29,6 % ayollar hissasiga to'g'ri keladi.





ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN CHET ELLIK TALABALAR SONI (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)

181

434


5

Qabul qilingan

Tahsil olayotgan

Bitirgan

QABUL QILINGAN TALABALAR SONI, %



- Hindiston
- Rossiya Federatsiyasi
- Qirg'iziston Respublikasi
- Boshqa davlatlar

2022/2023-o'quv yili boshiga Andijon viloyati oliy ta'lim tashkilotlariga dunyoning 10 ta davlatlaridan kelgan 181 nafar yoshlar talabalikga qabul qilindi. Ushbu talabalardan 95 nafarini qizlar tashkil etadi.

Qabul qilingan talabalardan 80,1% Hindiston, 6,6 % Rossiya Federatsiyasi, 6,1 % Qirg'iziston Respublikasi va qolgan 7,2 % boshqa davlatlardan kelgan yoshlardan iborat.





ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN CHET ELLIK TALABALAR SONI

(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)

Hindiston



Pokiston



Qirg'iz Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar



2022/2023-o'quv yili boshiga Andijon viloyati oliy ta'lim tashkilotlariga tahsil olayotgan chet ellik talabalar soni jami 434 nafardan iborat bo'lib, ulardan 179 nafarini yoki 41,2 % ni qizlar tashkil etadi. Jami tahsil olayotgan talabalarning 44,2 % ni Hindistonlik talabalar tashkil etadi.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Andijon viloyati statistika
boshqarmasi



Manzil: Andijon shahar
Milliy tiklanish ko'cha-36 a



Tel.: (74) 228-48-51



andtat@umail.uz



www.andstat.uz



facebook.com/andstataxborot